

**“Uzbekistan airports” AJning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni  
ko‘rib chiqish natijalari haqidagi yillik  
HISOBOT**

“Uzbekistan airports” AJning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi yillik hisoboti quyidagicha ko‘rinishga ega.

**I. Umumiy ma’lumot:**

“Uzbekistan airports” AJda jismoniy va yuridik shaxslardan korrupsiya faktlariga doir bir qator murojaatlar kelib tushgan bo‘lib, tegishli qonun hujjatlari talablari asosida o‘rganildi.

Xususan, 2023-yilning o‘tgan davri maboynida “Uzbekistan airports” AJga korrupsiya faktlariga doir **34 ta** murojaat kelib tushgan.

**Shundan hududlar bo‘yicha:**

Qoraqalpog‘iston Respublikasidan – 3ta;

Xorazm viloyatidan – 5 ta;

Buxoro viloyatidan – 5 ta;

Samarqand viloyatidan – 4 ta;

Navoiy viloyatidan – 2 ta;

Namangan viloyatidan – 4 ta;

Qashqadaryo viloyatidan – 5 ta;

Surxondaryo viloyatidan – 2 ta;

Farg‘ona viloyatidan – 1 ta;

Toshkent shahridan – 3 ta murojaat kelib tushgan.

**Shundan:**

ishga qabul qilinmayotganligidan noroziligi bo‘yicha – 9 ta;

ish sharoitini o‘zgartirishda korrupsiya mavjudligi bo‘yicha – 4 ta;

manfaatlar to‘qnashuvi holati bo‘yicha – 3 ta;

lavozimidan bo‘shatilishidan noroziligi bo‘yicha – 6 ta;

xaridlar bo‘yicha – 4 ta;

oylik ish haqi masalasida – 3 ta;

tashkilot mablag‘laridan noto‘g‘ri foydalangalik holati bo‘yicha – 3 ta;

boshqa masalar bo‘yicha – 2 ta murojaatlar kelib tushgan.

**II. Ko‘rib chiqish natijalari:**

“Uzbekistan airports” AJ tomonidan mazkur murojaatlar “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari tog‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda tegishli qonun hujjatlariga muvofiq o‘rganib chiqilib, murojaat qiluvchilarga tegishli huquqiy tushuntirish berildi. O‘rganish natijalariga ko‘ra, murojaatda bildirilgan vajlar o‘z tasdiqini topmadi hamda korrupsiyaga oid qonun buzilish holatlarining mavjudligi aniqlanmadi.

**III. Minimallashtirish choralari:**

“Uzbekistan airports” AJ tomonidan kelib tushgan murojaatlarni o‘rganish jarayonida ko‘p hollarda ayrim mas‘ul shaxslar tomonidan fuqarolarning vajlari bo‘yicha

to'g'ri tushuntirish berilmaganligi, yetarlicha muloqot o'rnatilmaganligi bois, ularda shubha uyg'otganlik holatlari mavjudligi aniqlandi.

Ushbu holatlarni inobatga olib hamda kelgusida korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida "Uzbekistan airports" AJ Boshqaruv yig'ilishlarida muhokama qilinib, tegishli chora-tadbirlar belgilandi. Shuningdek, korrupsiya xatarlari mavjud bo'lgan yo'nalishlar, xususan, xaridlar bo'yicha, fuqarolarga xizmat ko'rsatish, chipta xarid qilish masalalari va boshqa yo'nalishlar qayta ko'rib chiqilib, informatsion texnologiyalardan foydalangan holda, ko'rsatilayotgan xizmatlarni raqamlashtirish va "inson omili"ni kamaytirish orqali korrupsion holatlarning oldini olishga alohida ahamiyat berilmoqda.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish  
va komplayens nazorat  
bo'limi boshlig'i v.v.b**



**M.Maxkamboyev**